



**TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA  
BOSHQARMASI**

**Toshkent viloyatida  
kichik tadbirkorlik  
2022- yil yanvar-sentabr**




**Dastlabki ma'lumotlar**


# Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi, % da



2020- yil



2021- yil




2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi **47,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **16,1** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrda **5092** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **19,0** foizga kam demakdir.

## 2022- yilning yanvar-sentabr yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1864** ta, sanoatda **975** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **659** ta, yashash va ovqatlanishda **413** ta, qurilishda **314** ta, tashish va saqlashda **174** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari



2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Sanoat 17,5



Qurilish 79,7



Investitsiya 55,1



Savdo 72,9



Xizmatlar 69,6



Eksport 26,0



Import 47,8



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

47818



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

5092

2022- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

## Savdo

33,6 %



## Sanoat

20,0 %



## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

12,4 %



## Qurilish

8,4 %



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,3 %



## Tashish va saqlash

3,8 %



## Axborot va aloqa

1,4 %




## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,6 %




## Boshqa faoliyat turlari

10,4 %



1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo'yicha 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y.


■ 2022- y.

■ (+;-)

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



## Hududlar bo'yicha Yanvar-sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021 y. yanvar-sentabr

■ 2022 y. yanvar-sentabr

## 2022- yil yanvar-sentabrda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Zangiota tumani – 10,5 %, Qibray tumani – 7,5 %, Toshkent tumani - 7,0 %, Chirchiq shahar – 6,4 %, O'rta Chirchiq tumani – 5,4 %, Bo'stonliq tumani – 5,2 %, Angren shahar - 4,7 % hissalariga to'g'ri keldi.





# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

## Yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022- yil yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:


Savdoda  
1864 ta

Sanoatda  
975 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida  
659 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
413 ta

## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida



2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 16,1 birlikni tashkil etdi.



Toshkent viloyatidafaoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 1-oktabr holatiga ko'ra\*


2020- y. 16,7

2021- y. 19,5

2022- y. 16,1

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*

2022- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 32,6 birlik, Ohangaron shaharda 29,3 birlik, Nurafshon shaharda 25,2 birlik, Qibray tumanida 25,2 birlik, O'rta Chirchiq tumanida 19,6 birlikni tashkil etgan.



\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2022- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Zangiota tumanida 31,8 birlik, o'rtacha ko'rsatkich Chirchiq shahar - 16,3 birlik, past ko'rsatkich Bekobod tumani - 8,4 birlikni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra\*

Eng yuqori ko'rsatkich

Zangiota tumani  
- 32,6 birlik.


O'rtacha ko'rsatkich

Chirchiq shahar  
- 16,3 birlik.

Past ko'rsatkich

Bekobod tumani  
- 8,4 birlik.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda \*




\* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik  
subyektlarining YAIMdagi ulushi, % da



2020- y.      2021- y.      2022- y.

**2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi 47,0 % ni tashkil qildi. (2021- yilning yanvar-sentabrda 47,8 %).**

**2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, % da**


	Sanoat	Qurilish	Savdo	Investitsiya
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>17,5</b>	<b>79,7</b>	<b>72,9</b>	<b>55,1</b>
Nurafshon shahar	25,7	100,0	27,7	29,4
Olmalik shahar	1,9	17,2	85,4	12,0
Angren shahar	17,8	66,0	61,9	65,6
Bekobod shahar	2,2	91,9	87,8	22,0
Ohangaron shahar	29,8	97,0	92,8	76,9
Chirchiq shahar	21,6	94,9	67,4	47,0
Yangiyo'l shahar	50,9	78,6	95,1	88,1
Oqqo'rg'on tuman	23,9	99,6	98,0	59,0
Ohangaron tuman	10,1	98,7	97,5	88,4
Bekobod tuman	45,0	100,0	93,2	47,6
Bo'stonliq tuman	16,4	90,9	67,7	61,0
Bo'ka tuman	34,7	100,0	94,1	70,6
Quyi Chirchiq tuman	66,6	100,0	95,8	92,2
Zangiota tuman	78,9	87,9	55,0	66,9
Yuqori Chirchiq tuman	64,2	90,0	92,7	73,4
Qibray tuman	19,5	85,1	84,1	53,4
Parkent tuman	89,7	100,0	97,1	60,9
Piskent tuman	40,8	100,0	89,5	79,7
O'rta Chirchiq tuman	42,9	99,5	89,5	83,5
Chinoz tuman	38,9	100,0	74,4	84,3
Yangiyo'l tuman	43,6	77,2	90,1	60,2

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 392,2 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 26,0 % ini tashkil etdi.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi




## 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yuqori Chirchiq tumanida – 99,7%, Ohangaron tumanida – 99,6%, Piskent tumanida – 97,1%, Zangiota tumanida – 96,9%, Yangiyo'l shaharda – 93,9% va Bekobod tumanida - 92,3% ni, eng past ko'rsatkich Olmaliq shaharda – 1,9% ni tashkil etdi.



## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **1184,6** million AQSH dollarini yoki umumiy importning **47,8** % ini tashkil etdi.



### 2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Yuqori Chirchiq tumanida – 98,3 %, O'rta Chirchiq tumanida – 93,8 %, Bo'ka tumanida – 93,2 %, Yangiyo'l shaharda – 91,1 %, Chinoz tumanida – 89,5 % ni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Bekobod shaharda – 0,6 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **11799,3** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Zangiota tumani (1682,4 mlrd. so'm), Toshkent tumani (1228,1 mlrd. so'm), Yuqori Chirchiq tumani (1226,1 mlrd. so'm), Chirchiq shahar (1092,4 mlrd. so'm) va Ohangaron shahar (1004,2 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Bo'ka tumanida (96,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi

2022- yil Yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **17,5 %** ni tashkil etdi.


## 2022- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Piskent tuman (89,7 %), Qibray tuman (78,9 %), Yangiyo'l tumani (73,4 %), Zangiota tuman (66,6 %), Quyi Chirchiq tumani (64,2 %), Yangiyo'l shahar (50,9 %), Bekobod tumani (45,0 %), Toshkent tumani (43,6 %), Chinoz tumani (42,9 %) va O'rta Chirchiq (40,8 %) tumanlari tashkil etdi. Olmaliq shaharda (1,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **15719,7** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **72,9** % ini tashkil etib, oʻsish surʻati 2021- yil Yanvar-sentabr oylariga nisbatan **103,7** % ni tashkil qildi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Zangiota tumani (**2640,2** mlrd. soʻm), Olmaliq shahar (**1269,8** mlrd. soʻm), Qibray tumani (**1188,3** mlrd. soʻm), Yangiyoʻl shahar (**1076,4** mlrd. soʻm), Boʻstonliq tumani (**824,0** mlrd. soʻm), va Bekobod (**796,0** mlrd. soʻm) shaharlari hissasiga toʻgʻri keldi.



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6732,5** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,7 %** ini tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil Yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,1 %** ni tashkil qildi.

## Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qibray tumanida (734,2 mlrd. soʻm), Zangiota tumanida (617 mlrd. soʻm), Yuqori Chirchiq tumanida (577,4 mlrd. soʻm), Quyi Chirchiq tumanida (495,6 mlrd. soʻm), Nurafshon shaharda (479,8 mlrd. soʻm), Chirchiq shaharda (412,2 mlrd. soʻm) hamda Toshkent (402,3 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.

## 2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd. soʻm    ● oʻsish surʻati, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati


Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi



2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **12891,4** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **69,6 %** ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **109,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Zangiota tumani (1102,9 mlrd. soʻm), Chirchiq shahar (1053,6 mlrd. soʻm), Olmaliq shahar (940,7 mlrd. soʻm), Qibray tumani (903,1 mlrd. soʻm), Toshkent tumani (848,0 mlrd. soʻm), Angren shahar (793,5 mlrd. soʻm) va Boʻstonliq tumani (696,9 mlrd. soʻm) hissasiga toʻgʻri keldi.


2022- yilning yanvar-sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati






# 2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 22,8 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 128,4 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 57,8 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,7 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil qildi.




## Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1798** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 568 (31,5%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1049 (58,4%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 181 (10,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 39,4 % (710 ta), xizmatlar sohasida – 26,8 % (481 ta), sanoatda – 18,3 % (328 ta) , qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,8 % (159 ta) va qurilishda – 6,7 % (120 ta) ni tashkil etdi.

2022- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III chorak bo'ycha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'ycha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil III chorak bo'ycha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'ycha taqsimlanishi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Zangiota (227 ta), Qibray (169 ta), Toshkent (138 ta), Chirchiq shahar (122 ta), Angren shahar (107 ta) hissasiga to'g'ri keldi.


# Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari



## 2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



## 2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning III choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 38,8%ni, xizmatlar sohasida 28,8%ni va sanoatda 18,9%ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 40,9%ni, xizmatlar sohasida 26,3%ni va sanoatda 17,3%ni tashkil etdi.

2022- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 38,8%ni, xizmatlar sohasida 29,2%ni va sanoatda 18,3%ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida 40,6 %ni, xizmatlar sohasida 25,3%ni, sanoat sohasida 18,0%ni tashkil etdi.

